



“YASHIL IQTISODIYOT” ASOSIDA SANOAT TARMOG’I SAMARADORLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI.

Kalandarova Elnura Muzaffar qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13912876>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- Oktyabr 2024 yil

Ma’qullandi: 05- Oktyabr 2024 yil

Nashr qilindi: 10- Oktyabr 2024 yil

KEY WORDS

ekologik muammo, yashil iqtisodiyot, xorijiy tajriba, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish, mintaqqa.

ABSTRACT

Maqolada “Yashil iqtisodiyot” asosida sanoat tarmog’i samaradorligini oshirishga erishish va bu yo’nalishda samarali usullardan foydalanish bo’yicha tahlillar olib boriladi. O’zbekiston hududlarida sanoat tarmog’i yashil iqtisodiyotga asoslangan iqtisodiyotni targ’ib qilish va rivojlantirish bo’yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mamlakat va uning mintaqalarida yashil iqtisodiyotni joriy qilish ularning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy rivojlanishini belgilab berar ekan, har bir mintaqqa va mamlakat ushbu bosqichga tezroq va samarali o’tishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. Mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotning joriy qilishning nazariy-ilmiy asoslarini hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqish mazkur masalaning dolzarb mavzuligini namoyon qiladi.

Mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish yangi yo’nalish bo’lib, asosan 2017 yildan keyin e’tibor qaratila boshlandi. Mazkur yo’nalishda huquqiy-me’yoriy asoslar ham yaqin o’tmishdan shakllanib kelmoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni hamda 2020 yil 26 maydagi PQ 3012 sonli “2020-2022 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to’g’risida”gi Qarori, 2021 yilning 30 oktyabridagi PF-5863 sonli “2030 yilgacha bo’lgan davrda O’zbekiston Respublikasining Atrof- muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni shular jumlasidan. Mazkur hujjatlarda yashil iqtisodiyotga o’tish O’zbekiston iqtisodiyotining strategik yo’nalishlaridan ekanligi ta’kidlab o’tilgan.

Taxlil va natijalar

Respublikada sanoatning ko’lamini kengaytirish bilan bir qatorda uni yashillashuv, ekologiyalashuv yo’nalishlarida rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Shunday yo’nalishlardan biri bu quyosh energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqarishdir. 2021 yilning 27 avgust kuni Navoiy viloyatida O’zbekistonda birinchi quyosh elektr stantsiyasi ishga tushirildi. Uning quvvati 100 mVt. Mazkur korxonaga yiliga 252 mln. kilovat elektr energiya ishlab chiqaradi. Mazkur inshoot bir yilda 80 mln. kub metr tabiiy gaz iste’molini

tejash bilan birga atmosferaga chiqadigan issiqxona gazlarini 160 ming tonnaga kamayishiga asos bo'ladi. O'zbekiston quyosh energiyasiga boy mamlakat hisoblanadi, bu yerda 525-760 mlrd. kVt/soatlik potentsial jamlangan. Ushbu potentsialni inobatga olib qayta tiklanuvchi manbalar hisobiga elektr energiya ishlab chiqarishni 2018 yildagi jamiga nisbatan 10 foizdan 2030 yilga borib 25 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Energiyani samarasiz ishlatish oqibatida O'zbekiston YaIMi har yili o'rtacha 4,5 foiz yo'qotishga uchramoqda. Mamlakat energiya tashuvchi tizimlarining 40 foizi o'z muddatini o'tab bo'lgan va ma'nan hamda jismonan eskirgan. Hozirgi mavjud energiya tashuvchi resurslar zahirasi 2030 yilga borib keskin kamayadi hamda bu resurslarning katta taqchilligi kuzatiladi. Tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, mamlakat hududida qayta tiklanadigan energiya resurslari manbalari 270 mln. tonna shartli yoqilg'iga teng bo'lib, bu yillik energiya iste'moliga nisbatan 3 karra ko'pdir. Ushbu manbalarning katta qismini quyosh energiyasi tashkil qiladi. So'nggi 10 yil ichida jahon bozorida quyosh energiyasi narxi 80 foizga pasaygan. O'zbekistonda bunday energiyaning narxi yanada ham arzonroq bo'ladi, sababi, mamlakatda quyosh radiatsiyasi yuqori, yorug'ligi balanddir. ¹Respublika sanoatida kimyoviy ishlab chiqarish va tog'-kon sanoati ustunlik qiladi. Bu tarmoqlar mamlakatda iste'mol qilinadigan energiyaning chorak qismini, shuningdek tabiiy gazning 80 foizga yaqin qismini tasarruf etadi. Sanoat oldida nafaqat chiqindilarni kamaytirib, atrof-muhitni ifloslanishni pasaytirish masalasi, balki, ekologik sof ishlab chiqarishga, innovatsiyalar va raqobatbardosh kadrlar malakasiga asoslangan global ishlab chiqarish jarayonlaridagi tezkor o'zgarishlarga moslashib borish masalasi ham dolzarbdir. Sanoat tarmoqlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirganda ekologik sof mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish, ularni imtiyozli soliq, subsidiyalashgan foiz stavkalari, QQSning pasaytirilishi kabi rag'batlar jarayonlarning tezlashishiga sabab bo'ladi. Kam ishlab chiqariladigan va import evaziga qoplanadigan tovarlarga past import bojlari qo'llash sanoatning yashil tizimlarga transformatsiyasini va yashil g'oyalarning joriylanishini kuchaytiradi. Shuningdek, ekologik jihatdan zararli bo'lgan subsidiyalarni ajratishni kamaytirish talab etiladi, masalan, energetika sohasida iste'mol qilinadigan yoqilg'i resurslari uchun ajratilayotgan subsidiyalar miqdori shunday resurslarning atrof-muhitni ifloslaganligi uchun ajratilayotgan to'lovlardan bir necha karra kattadir.

Ma'lumki, ishlab chiqaruvchilar har doim foyda keltiradigan sohalar bilan shug'ullanadilar, bu holda har qanday iqtisodiy jarayonni, masalan, qurilish, kimyoviy ishlab chiqarish va boshqalarni ko'paytirish mumkin emas. Va hozirgi bosqichda davlat tadbirkorlarga "yashil iqtisodiyot" ga investitsiyalarning real samaradorligini tushunishda yordam berishi kerak.

Shuningdek, "yashil iqtisodiyot" doirasida ishlab chiqarilayotgan mahalliy mahsulotlar eksport uchun keng imkoniyatlarga ega. Shu maqsadda hukumatlar xorijiy bozorlarning ehtiyojlarini o'rganish va ushbu axborotni mahalliy tadbirkorlarga taqdim etish, mamlakatda xalqaro miqyosda e'tirof etiladigan tegishli sertifikatlashtirish tizimini yo'lga qo'yish kabi qo'llab-quvvatlash turlarini ko'paytirmoqda. Bularning barchasi tashqi bozorlarga kirish uchun biznes imkoniyatlarini kengaytirmoqda, bu erda "yashil iqtisodiyot" asosida ishlab chiqarish yildan-yilga kengayib bormoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston sanoat sektori yoqilg'ilarni iste'mol qilish va issiqxona gazlari emissiyasining asosiy manbai hisoblanadi. Mamlakat sanoatida energiya iste'moli

¹ www.minieconomy.uz

bo'yicha kimyoviy ishlab chiqarish va tog' - kon sanoati ustunligini hisobga olib, mamlakatda iste'mol qilinadigan elektr energiyasining deyarli to'rtidan bir qismini, shuningdek, tabiiy gazning eng katta hajmini ishlatadi. Issiqxona gazlari (iqlim o'zgarishining asosiy sabablaridan biri) emissiyasiga kelsak, mamlakat sanoatining eng katta miqdori metallurgiya, sement ishlab chiqarish, kimyo va to'qimachilik sanoati hisoblanadi. Va sanoatning rivojlanishini hisobga olgan holda, issiqxona gazlari emissiyasi hajmi oshadi. Bu vaziyatdan chiqish yo'li – "ko'kalamzorlashtirish" sanoati, yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich maksimal o'tish.

2019-yil oktabr oyida "2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" qabul qilingan.

Strategiya energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, qishloq xo'jaligi ekinlarining resurs samaradorligi va hosildorligini oshirish, shuningdek, yer degradatsiyasini cheklash hisobiga emissiyalarni qisqartirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan.

Albatta, "yashil iqtisodiyot" ga o'tish bosqichlari bir necha yil davom etadi va davlat ishlab chiqaruvchilarga taklif qiladigan choralar bilan tezlashadi. Biroq, COVID-19 bilan bog'liq pandemiya saboqlari ko'rsatgandek, hozirgi vaziyatni rivojlantirishning turli xil senariylariga tayyorgarlik choralarni kechiktirish mumkin emas. Ularning atrof-muhit holati bilan aloqasi aniq, ya'ni "yashil loyihalarni" boshlash va ularni bosqichma-bosqich kengaytirish vaqti keldi.

O'z navbatida, COVID-19 pandemiyasi jamoat salomatligi iqlim va tabiat bilan chambarchas bog'liqligini aniq ko'rsatdi. Pandemiya saboqlari butun dunyo uchun tabiiy resurslardan barqaror foydalanish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va ularga moslashish orqali "yashil" tiklanishni boshlash uchun rag'batlantiriladi. Bugungi kunda inqirozdan chiqish imkoniyatini ekologik jihatdan qulay, past karbonli yo'l bilan ishlatish muhimligi, bu yerda iqtisodiyotni tiklash issiqxona gazlari emissiyasini oshirmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Mutaxassislarning fikricha, yaqin kelajakda u yoki bu davlatning barqaror rivojlanishi uchun energetika tarmog'ida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish salmog'iga uzviy bog'liq bo'lib qolishi ehtimoldan xoli emas.

Shularni inobatga olgan holda so'nggi yillarda respublikamizning sanoat tarmoqlariga "yashil iqtisodiyot" tizimini joriy qilish, ijtimoiy sohasida energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, innovatsion taraqqiyotni jadallashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarori bu boradagi sa'y-harakatlarni yangi bosqichga ko'tardi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xususan, qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirishning maqsadli parametrlariga asosan 2025-yilga kelib elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatlari tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining hissasini 12,7 foizdan 19,7 foizga etkazish

ko'zda tutilmoqda. Bunda gidroelektrostantsiyalar ulushini 12,7 foizdan 15,8 foizga, quyosh energetikasi 2,3 foizga hamda shamol energetikasi 1,6 foizga etkazish rejalashtirilgan.²

Shu bilan birga, qarorga asosan 2017-2025 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 5,3 milliard dollar bo'lgan 810 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Qolaversa, ijtimoiy soha va agrar sektor ob'ektlarida zamonaviy energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish hisobidan 56,5 million kub metrdan ortiq tabiiy gaz hamda 807,3 million kVt.soatdan ortiqroq elektr energiyasini tejab qolishga erishiladi.

Mamlakatimiz hali yetarlicha o'rganilmagan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ega, ular asosan quyosh va shamol resurslari bo'lib, toza va barqaror energiyani ta'minlay olish imkoniyati mavjud. O'zbekiston Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropadagi eng energik-intensiv mamlakatlar qatoriga kirishi kutilmoqda. 2000-yildan 2015-yilgacha elektr energiyasi iste'moli yiliga 46.8 mlrd kVts dan 57.5 mlrd kVtsgacha oshdi. Hisob kitoblar shuni ko'rsatadiki, 2020-yilgacha bu ko'rsatkich 25 foiz ko'proq, ya'ni 71.8 mlrd kVtsni tashkil qilishi mumkin.³

Ayni paytda, O'zbekistondagi qayta tiklanuvchi energiya resurslarini ko'rib chiqsak:


- Quyosh energiyasi: 525 dan 760 mlrd. kVt.s gacha;
- Shamol energiyasi: 1 trln kVt.s gacha;
- Hidroenergetika: 21 mlrd. kVt.s dan oshiq;
- Biomassa: 6 mlrd. kub.m.⁴

Qayta tiklanuvchi energetika baribir hali beri o'z samaradorligini ko'rsatishi uchun ancha vaqt va mablag'ni talab etadi. Hozirda mavjud asosiy muammolarimizni statistik kuzatishlarda ko'rib chiqsak. Albatta, o'z-o'zidan nega bu ko'rsatkich yuqori degan savol tug'iladi. Respublikamizda energiya YaIM iste'moli yuqoriligining turli sabablari mavjud bo'lib, asosiy sabablaridan biri, sanoat tarmoqlari korxonalarida jismoniy eskirgan texnologiyalarning haligacha ishlatib kelinishi deyish mumkin. Bu esa boshlang'ich manbadan kelayotgan 60 foiz energiyaning yetkazuvchi va tarqatish tizimlarida yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, fakel (mash'al) qurilmalaridagi gazni yoqish ham katta miqdorda pulni osmonga sovrish degani (2.2.1-rasm).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida"gi qarori\www.lex.uz

³ www.davr24.uz

⁴ O'sha manba

**O'zbekistonning YIM energiya iste'moli, kilogramm
neft ekvivalenti/ AQSh dollarida****2.2.1-rasm. O'zbekistonning YaIM energiya iste'moli sezilarli darajada yuqori, kg, neft ekvivalenti/AQSh doll.**⁵

Masalan, 2011-yili mash'al uskunalardagi gaz yonishidan ko'rilgan zarar miqdori 500 million AQSh dollarini tashkil qilgan. Bu miqdordagi pulga O'zbekistondagi 1,5 million xonadonning tomiga quyoshdan quvvatlanuvchi vakumli suv isitish moslamasini yoki 1 milliondan oshiq xonadon tomiga quyosh panellari tizimini o'rnatish mumkin. Biroq, uyingizni mutlaqo to'liq bu tizim bilan ta'minlash arzonga tushmaydi. Rivojlangan davlatlar uchun ham bu muammo begona emas. Misol uchun, AQShning Kaliforniya shtatida paydo bo'lganiga o'n yildan oshgan SolarCity energetika kompaniyasi bu tizimlarni aholiga sotish emas, balki lizingga berish orqali yechim topgan ekan. Hozirga kelib, SolarCity 300 000 dan ziyod uylarga xizmat ko'rsatadi, uning qurilmalarini 10 yildan 20 yilgacha kredit, lizing orqali to'lab borish mumkin.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, O'zbekistonni "yashil iqtisodiyot" tizimiga o'tkazish sanoat ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, menejment, ta'lim tizimini isloh qilish va modernizatsiyalashning barcha jihatlarini, xodimlarni malakasini oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash, yangi ish joylarini yaratish bo'yicha tizimli yondashishni talab qiladi.⁶

Hozirda O'zbekistonning issiqlik elektr stantsiyalari respublikada ishlab chiqarilayotgan elektr quvvatining qariyb 86 foizini tashkil qiladi. Ayni vaqtda yurtimizda 14 ming megavatt quvvatga ega elektr stantsiyalari mavjud. Aholining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji o'sishi natijasida bu talab 2030 yilga borib 20 ming megavattga yetishi kutilmoqda. Ushbu stantsiyalar yiliga 17 milliard kub metr tabiiy gaz sarflaydi. Vaholanki, bunday katta miqdordagi gazni qo'shimcha qiymat yaratish (sintetik yoqilg'i, polipropilen olish) jarayonlariga yo'naltirish mumkin. Shu bois, mutaxassislar oldidagi asosiy vazifa elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishdangina iborat bo'lmay, balki atrof-muhit uchun zararsiz bo'lgan "yashil energiya" ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratilyapti.

Mamlakatimizda bu borada 10 yilga mo'ljallangan aniq loyihalar bor. Shu vaqt oralig'ida umumiy quvvati 5 ming megavattga teng quyosh elektr stantsiyalari hamda umumiy quvvati 3 ming megavattni tashkil yetadigan shamol elektr stantsiyalarini qurish rejalashtirilgan.

⁵Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., "Yashil iqtisodiyot" asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari, "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №2, 2017 yil

⁶<http://www.pv.uz/uz/24196>

Energetika vazirligi 2020 yilning 1 fevralida SHERobod tumanida Osiyo taraqqiyot banki ko'magida fotoelektrik elektr stantsiyasi qad rostlashi bo'yicha dastlabki loyihaga boshlanganini ma'lum qilgan edi. Loyiha ushbu bank hamkorligida ishlab chiqilgan 1 gVt quyosh energiyasi hosil qilish dasturining bir qismi bo'lib, unga ko'ra, kamida 200 MVt o'zgaruvchan tok quvvatiga [ega quyosh elektr stantsiyasi](#), shu jumladan, yangi 220 kVt kuchlanishli podstantsiya va "Surxon – 500 kVt" podstantsiyasiga ulanish uchun jami uzunligi 52 kilometrlik elektr uzatish tarmog'i tortiladi.

Mamlakatimiz qayta tiklanadigan energiya manbalari loyihalarida qatnashish bo'yicha yaxshi shartlarni taklif qilgan yirik kompaniyalar bilan bevosita muzokaralarni faol davom ettirmoqda. Masalan, Fransiyaning "Tota Eren" kompaniyasi tomonidan Samarqand viloyatining Nurobod tumanida fotoelektrik stantsiya tiklanadi. Jami quvvati 100 mVt.li bu inshootni barpo etish va undan foydalanish to'g'risidagi bitim o'tgan yili kuzda imzolangan edi.

Ekologik toza energiya olishda shamol elektr stansiyalarining ham ahamiyati katta. Ayniqsa, so'nggi yillarda bu energiya jahonda jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biriga aylandi. Shamol dvigateli, elektr toki generatori, ularning ishini boshqaruvchi avtomatik qurilma hamda ular o'rnatiladigan inshootlardan iborat elektr stansiyalar shamol oqimining kinetik quvvatini elektr energiyaga aylantirib beradi. Udan ko'pincha shamol oqimining o'rtacha yillik tezligi yuqori bo'lgan va markazlashtirilgan elektr ta'minot tarmoqlaridan uzoqda joylashgan hududlarda foydalaniladi. Bunday stansiyalar orqali 8 kilovatdan 1,2 megavatgacha bo'lgan quvvatdagi elektr energiyasi hosil qilish mumkin.

Yurtimizda shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda yirik investitsiyaviy loyihalar amalga oshirilmoqda. Ulardan biri Navoiy viloyatining Tomdi tumanida Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi ishtirokida umumiy quvvati 500 megavatga teng shamol elektr stantsiyasi qurish loyihasidir. Bu stantsiyani 2023 yilda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Xorijiy kompaniya bilan amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida Buxoro va Navoiy viloyatlarida umumiy quvvati 1000 mVt bo'lgan ikkita shamol elektr stansiyasini qurish ham ko'zda tutilgan. Ushbu elektr stansiyalarini qurish loyihasining umumiy qiymati qariyb 1,3 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Mazkur loyihalarni amalga oshirish uglevodorod chiqindilarini 1,6 million tonnaga qisqartirish imkonini yaratishi barobarida, 2031 yilga borib energiya quvvatlarining 40 foizini qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tkazish bo'yicha hukumat tomonidan qo'yilgan maqsadlarga erishishga xizmat qilishi kutilmoqda. Jarayonning ilk bosqichida Energetika vazirligi, Davlat geologiya qo'mitasi hamda "ACWA Power" kompaniyasi mutaxassislari tomonidan mamlakatimizning bir qancha hududlarida shamol oqimi darajasi o'rganib chiqildi. O'tgan yilning avgust oyida boshlangan o'rganish ishlari 12 oy davomida olib boriladi. Tadbirlar davomida shamolning tezligi, yo'nalishi va davomiyligi, shuningdek, hududlardagi ob-havo sharoitlarining o'zgarishiga oid ma'luotlarni o'lchash uchun 100 metr balandlikdagi maxsus o'lchov asboblari o'rnatiladi. Ushbu ishlarga yuqori malaka va tajribaga ega mahalliy hamda xorijlik mutaxassislar jalb qilingan. Bundan tashqari, hududlarda topografik, geologik va gidrologik tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha ham ishlar olib borilmoqda.⁷

⁷ www.Review.uz

Bu loyihalarni amalga oshirishda energetika vazirligi va "ACWA Power" kompaniyasi o'rtasida tuzilgan vodorod energiyasini rivojlantirish bo'yicha shartnoma ham muhim o'rin tutadi. Asosiy maqsad O'zbekistonning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish hamda vodorod va qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi ilmiy izlanishlar orqali "issiqxona" gazi hosil bo'lishini kamaytirishga qaratilgan.

O'zbekiston 2030 yilga qadar qayta tiklanadigan energiya (QTE) manbalari ulushini 25 foizgacha oshirishni rejalashtirgan. Bugun mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi umumiy hajmida qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushi 10 foizgacha tashkil etadi, qolgan 90 foizi an'anaviy manbalardan ishlab chiqarilayapti.

Shamol energetikasi bo'yicha yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra, O'zbekiston geografik joylashuvi va iqlim sharoiti bois ushbu yo'nalishda ulkan salohiyatga ega.

Energetika vazirligi mutaxassislari O'zbekistonda shamol elektr stantsiyasini qurish va undan foydalanish loyihasini amalga oshirish 600 million dollardan ortiq miqdordagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish hamda 1 ming 300 ta yangi ish o'rnini yaratish imkoniyatini berishini ta'kidlagan edi.

Elektrostantsiyaning foydalanishga topshirilishi yiliga 1,8 GVt /soat miqdorida arzon elektr energiyasi ishlab chiqarish hisobiga respublikaning energetika balansini diversifikatsiya qilish va mustahkamlashga imkon beradi. Bu 500 mingdan ziyod uy xo'jaligining ehtiyojini qoplaydi deganidir.

Zamonaviy QTE texnologiyalarini joriy etish elektr energiyasini ishlab chiqarishda ishlatiladigan tabiiy gaz hajmini yiliga 175 million kubometr gacha kamaytirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu, shuningdek, tejab qolingani energiya resurslari boshqa ehtiyojlarga yo'naltiriladi, atmosferaga chiqariladigan karbonat angidrid chiqindilari sezilarli darajada (yiliga 1,1 million tonna) kamaytiriladi, degani hamdir.⁸

2.2.1-jadval.

Tiklanadigan energetikani yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi (MVt)⁹

№	Ko'rsatkichlar	Joriy qilinadigan energiya quvvatlari(prognoz)			
		2019 yil	2020 yil	2021 yil	2025 yil
	Jami	1159,7	2991,5	5222,5	7401,9
	Jumladan:				
1	Ananaviy energetika	802	2409	4218,6	5406
2	Tiklanadigan energetika	357,7	582,5	1003,9	1995,9
	Shundan				
2.1	Gidroenergetika	157,7	382,5	601,9	1243,9
2.2	Quyosh energetikasi	200	200	300	450
2.3	Shamol energetikasi			102	302

⁸www.Review.uz

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energiyani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi 2017-yil 26-maydagi PQ-3012 sonli qarori

Qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarining ro'yhatiga ko'ra 2017-2025 yillarda umumiy qiymati 5.3 mlrd.dollar bo'lgan 810 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda (2.2.1-jadval).

2023 yil aprel oyida ishlab chiqarish quvvatlarining birinchi bosqichi (250 mvtgacha) va 2024 yil oxiriga qadar barcha quvvatlarni foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Yuqoridagi loyihalar bo'yicha investitsiya kelishuvlarining imzolanishi, haqiqatan, energetika tarmog'ini isloh qilish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, O'zbekistonning past darajali uglevodorod chiqindili resurslardan foydalanishga o'tishida dadil qadamlardan biriga aylanishi, shubhasiz.

Bugungi kunda yurtimiz energetika sohasi salmog'ida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish muhim vazifalardan biriga aylanib boryapti. Yuqorida qayd etilgan yirik investitsion loyihalar "yashil energiya" dan foydalanish ko'lamini kengaytirish yo'lida qo'yilgan dastlabki qadamlar sirasiga kiradi. Xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda yaratiladigan muqobil energiya manbalari iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar va aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlab, atrof-muhitga chiqarilayotgan zararli chiqindilarni kamaytirish imkonini beradi.

Xulosa

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda ro'y beradi.

Kelajakda iqtisodiyot taraqqiyotini innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu yo'nalishda esa muqobil energiya manbalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Demak, davlatimiz rahbarining yangi qarori asosida bu borada boshlangan ishlar miqyoslari yanada kengayadi, samaradorligi esa ortaveradi.

Xulosa qilib aytganda, resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning salbiy oqibatlarini sharoitida "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishga ob'yektiv ehtiyoj paydo bo'lmoqda. "yashil iqtisodiyot"ga o'tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi.

- "yashil" energiyadan keng foydalanish bo'yicha hukumat qarorlarini qabul qilish va shunga asosan hududiy hokimliklar qonun osti hujjatlarini qabul qilish va ijrosini ta'minlash;

- aholi va davlat energiya iste'molida energiya tejankor texnologiyalarni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- "yashil" uy va binolarni qurish bo'yicha amaliy taklif va ishlanmalar ishlab chiqish;

- milliy iqtisodiyotning energiya sig'imkorligini ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiyalash, energiya resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish yordamida pasaytirib borish lozim;

qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning huquqiy bazasini shakllantirish va takomillashtirish zarur..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 14 iyuldagi «Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'RQ-628 son Qonuni

2. Yashil iqtisodiyot: darslik. /A. V. Vaxabov, Sh. X. Hojibakiev va boshqalar. - Toshkent.: "Universitet", 2020.
3. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., «Yashil iqtisodiyot» asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlarini, «XXI asr: fan va ta'lim masalalari» ilmiy elektron jurnali. №2, 2017 yil
4. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash-barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti, «Iqtisodiyot va ta'lim» ilmiy jurnali, №2, 2017
5. Barqaror iqtisodiy o'sish va uni ta'minlash bosqichlarining tahlili, «Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, №6, noyabr-dekabr, 2014 yil
6. «Iqtisodiy o'sish» darslik, Termiz Davlat universiteti, 2009 yil
7. «Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, №1, yanvar-fevral, 2017 yil
8. William Hynes, Shannon Wang. Green Growth and Developing Countries, A Summary for Policy Makers, June 2012
9. Аткиссон А.Р. Как устойчивое развитие может изменить мир. М., 2012. 255 с.
10. Гаврилов В.Н. Общество и природная среда. М., 2006. 334 с
11. Перелет Р.А. Переход к эре устойчивого развития./Россия в окружающем мире: 2003 (Аналитический ежегодник). – М.: Изд-во МНЭПУ, стр. 10-30, 2003
12. http://www.ggdc.net/maddison/Historical_Statistics
13. <https://review.uz/ru/post/vozobnovlyaemaya-energiya-dlya-ustoychivogo-razvitiya>
14. yearbook.enerdata.net
15. www.minieconomy.uz

INNOVATIVE
ACADEMY